

KASBIY TA'LIMDA INKLYUZIV TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISH

Qurbanov Sirojiddin Bo'ron o'g'li

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumining Fizika va astronomiya fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada yurtimiz ta'lism tizimidagi islohotlar va ularning ahamiyati, inklyuziv talimni rivojlantirish masalalari, 2020-2025-yillarda ta'lism tizimida inklyuziv talimni rivojlantirish konsepsiyasining pedagogik mohiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lism, ta'lism shakllari, inklyuziv ta'lism, pedagogik tahlil, metod, ijtimoiy siyosat.

Mavzuning dolzarbligi. Inklyuziv ta'lism, turli xil ehtiyoj va qobiliyatlarga ega o'quvchilarni o'z ichiga olgan ta'lism jarayoniga samarali jalb qilishni ta'minlovchi zamonaviy pedagogik yondashuvdir. Bu yondashuv, har bir o'quvchi o'z imkoniyatlaridan eng yaxshi foydalanishi uchun ta'lism muassasalari va o'qituvchilarga keng ko'lamda moslashuvchanlik va resurslarni taklif etadi. O'qituvchilarning inklyuziv ta'lism metodlarini qo'llay olish qobiliyatları ularning professional kompetensiyalarini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bunday qobiliyatlar nafaqat ta'lism muassasalarida, balki kengroq jamiyatda ham ijtimoiy inklyuzivlik va tenglikni ilgari surishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonda inklyuziv ta'lismni takomillashtirish, alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lism-tarbiya berish tizimini shakllantirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lism xizmatlari sifatini yaxshilashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrda "Alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lism-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan 2020-2025 yillarda ta'lism tizimida inklyuziv ta'lismni rivojlantirish konsepsiysi qabul qilindi.

Ta'lism integratsiyasi - bu inklyuziya, ya'ni "inklyuziv ta'lism" bo'lib, nogiron bolani ta'lism muhiti normal rivojlanayotgan tengdoshlari bilan bitta matabga o'qitishni ta'minlaydi. Ijtimoiy integratsiya bolaning jamiyatga qo'shilishi, ya'ni uning ijtimoiylashuvini o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizda bugungi kunda jismoniy yoki aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan 86 ta ixtisoslashtirilgan davlat ta'lism muassasasida 21 ming 363 bola ta'lism-tarbiya olmoqda. 13 ming 868 o'quvchiga esa uyda yakka tartibda ta'lism beriladi. Bugungi kun talablari asosida inklyuziv ta'lismni joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risida"gi qonuni loyihasiga inklyuziv ta'lism tushunchasi kiritildi. Bu borada Prezidentimizning 2018 yil 5 sentyabrda qabul qilingan "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori tizim rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Inkluziv ta'lismni kasbiy yo'nalishda rivojlantirishda asosiy maqsad nogironligi yoki maxsus ehtiyojlari bor talabalarning jamiyatda mustaqil faoliyat yuritishlari uchun zarur

Date: 17th April-2025



bilim va ko‘nikmalarни олишига ўордам беришdir. Ushbu yo‘nalishda bir nechta muhim omillar va ilg‘or tajribalar mavjud.

- **Multidisipliner yondashuv:** Nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun maxsus moslashtirilgan dasturlar yaratish lozim. Bu uslubda talabalarga shaxsiy ehtiyojlariga mos darslar va texnologiyalar taklif qilinadi. Masalan, ko‘rish yoki eshitish qobiliyati cheklangan talabalarga mos texnik qurilmalar va maxsus metodikalar qo‘llaniladi. Hindistonda multi-ko‘nikma asosidagi kurslar 9-10-sinf o‘quvchilariga taqdim etilib, ularning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlashga yordam bermoqda.

- **Integratsiyalangan dasturlar:** Germaniya kabi mamlakatlarda o‘quvchilarni mehnat bozoriga tayyorlash uchun amaliy va nazariy ta’limni uyg‘unlashtiruvchi dasturlar qo‘llaniladi. Bu o‘quvchilarni aniq bir kasbga tayyorlash bilan birga, ularga ish muhitiga moslashish imkonini beradi

- **Texnologiyalarning joriy etilishi:** Maxsus ehtiyojli o‘quvchilarni o‘qitishda raqamli texnologiyalar va interaktiv usullar muhim rol o‘ynaydi. Masalan, masofaviy ta’lim platformalari nogironligi bor talabalar uchun o‘quv jarayonini moslashuvchan qilishga yordam beradi.

Inklyuziv ta’lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi

- Ta’lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smlarning ta’lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo‘naltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruxiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- O‘quvchilarning ta’limdagi tenglik xuquqini kafolatlash;
- Jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog`lom bolalarning extiyoylarini qondirish, ijtimoiy hayoga erta moslashtirish;
- Jamiyatda imkoniyatti cheklangan bolalar va o‘smlarga nisbatan do‘stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir.

- Imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smlarni oilalardan ajramagan holda yashash huquqini ro‘yobga chiqarish;

XORIJIY VA ILG‘OR TAJRIBALAR

- Bugungi kunda jahon miqyosida juda ko‘plab davlatlarda inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilish borasida amaliy tajribalar olib boriladi.

- AQSh, Buyuk Britaniya, Daniya kabi bir qator mamlakatlarda maktab turini tanlash qonun tomonidan belgilanadi, ota-onalar esa, ta’lim turini tanlashni yozma ravishda tasdiqlanishi, ayrim hollarda asoslab berishlari lozim deb topilgan.

- Shvetsariyada- rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar ta’limning asosiy qismini ommaviy maktabda olishlarini ko‘zda tutuvchi dastur mavjud. O‘qituvchilar to‘rt kishidan: ommaviy maktabning uchta o‘qituvchisi va imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash bo‘yicha maxsus tayyorgarlikka ega bitta o‘qituvchidan iborat guruh faoliyat ko‘rsatadi. Maktab ma’muriyati uch oyda bir marotaba ta’lim psixologiyasi doirasidagi mutaxassislar bilan bir marta uchrashib, zarur tadbirlar va ota-onalar bilan uchrashuvlar

Date: 17th April-2025

borasida maslahatlashib oladilar. Bunday yondashuv, o'qituvchi mehnatini samaradorligini oshirish, integratsiya sinflarida ta'lif metodlarini qo'llash sifatini muhim omildir. Shvetsariyada ham boshqa mamlakatlar kabi inklyuziv ta'limga e'tibor katta. Ular uchun yaratilgan sharoit sog'lom bolalarga yaratilgan sharoitdan qolishmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inklyuziv ta'lif sohasidagi dolzarb muammolarni yoritib, o'qituvchilarning ushbu muhitda samarali faoliyat yuritishlari uchun zarur bo'lgan qadam va choralar muhokama qilindi. Shu asosda, quyidagi aniq takliflar ishlab chiqildi:

1. O'qituvchilarni inklyuziv ta'lif metodlari bo'yicha muntazam ravishda o'qitish va ularning malakasini oshirish;
2. Ta'lif muassasalarida inklyuziv ta'lif bo'yicha maslahatchi lavozimlarini joriy etish;
3. O'qituvchilar uchun amaliy va nazariy materiallarni o'z ichiga olgan elektron resurslar bazasini yaratish;

Ushbu takliflar amalga oshirilganda, o'qituvchilarning inklyuziv ta'limgagini samaradorligi oshadi, bu esa o'z navbatida barcha o'quvchilarga, xususan maxsus ehtiyojlarga ega o'quvchilarga ham, ta'lif jarayonida teng imkoniyatlar yaratishga yordam beradi. Natijada, ta'lif muassasalari zamonaviy jamiyat talablariga javob beruvchi, inklyuziv va integrativ ta'lif muhitini yaratishga qodir bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrda "Alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. Выготский Л.С. Дефект и сверхкомпенсация. // «Проблема дефектологии». М., 1996. -С. 42.
3. Pulatov Sh.N.Sankhya-ancient Indian philosophical school. //PUSTAK BHARATI RESEARCH JOURNAL// JAN-June. ISSUE Toronto, Canada. No: 1-2, 2020.
4. www.pedagog.uz
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2019/10/23/inclusive-education>